MA’NAVIY-AXLOQIY JIHATLARNING KADRLARNING SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

Shodiyorov Eldor Sharif o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilgari suriladigan qarashlar va tushinchalar bugunning “dolzarb” masalasiga aylangan kadrlarning ayniqsa yosh kadrlarning ma’naviy-axlqiy salohiyatini yuksaltirish masalasini ilgari suradi hamda bu boradagi muammolarga yechimlarni topib beradi.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, taraqqiyot, axloq, vatan ravnaqi, jamiyat, milliylik, barqarorlik, qadiryat, milliy davlatchilik, kadrlar salohiyati, beqarorlik.

Bugungi kunda ma’naviyat va axloq tushunchasi faqatgina kitoblarda yozilganicha qolib ketmoqda. Bu terminlarni ishlarish eskilik sarqiti yokida keraksiz tushuncha sifatida qaralib, ko‘pchilik jamiyatlarda bu terminlar inkor etilmoqda.Tarixga qaraydigan aynan bizni hududimizda yashagan ota-bobolarimiz yuksak ma’naviyatga hamda yetuk axloq sohibi bo‘lganliklari bilan budun dunyo hamjamiyatining eng ziyolilari sifatida ko‘rilgan. Biz bu sohada minglab yurtdoshlarimizni sanashimiz mumkin hisoblanadi, Misol uchun: Buyuk salohiyat va yetuk bilimga ega bo‘lgan bobokalonimiz Abu Nasir Farobiy axloq falsafasi terminini ilgari surib insonning qanday fazilatlarga ega bo‘lishlari, qanday fazilatli insonlar yetuk baholanishi haqida va uning johili sanalmish qurs sifatida qaralgan fazilatlarni o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida yozib qoldirgan bo‘li ushbu asar o‘zining axloqiy, tarbiyaviy hamda ma’naviy kamolotga erishtiruvchi g‘oyalari bilan ma’naviy-axloqiy sohada eng muhim manba sifatida qaraladi.

Umuman olganda ma’naviyat va axloq tushunchalri bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi.Bugungacha bu tushunchalarga minglab ta’riflar berilgan bo‘lib, ulardan eng maqullari sifatida quydagilarni ko‘rsatishimiz mukin hisoblanadi.

Ma’naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasining asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Ma’lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y-basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqa kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma’naviyatdir.

Axloq – bu avvalo insof va adolat tuyg‘usi, iymon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida haromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo‘ladi, vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o‘zini ayamaydi.

O‘zbekiston jamiyati bozor munosabatlariga shiddat bilan kirib borar ekan eng muhim tamoyllarga asoslangan holda kadrlar salmog‘ini kun sayin oshirib bormoqda. Mamlakatimiz bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida, iqtisodiy va ma’naviyat birligiga naqadar tez fursatda erishsa, rivojlanish pog‘onasida ham shuncha tez yuqoriga ildamlaydi.Bu sohalar hech qachon bir birini inkor etmaydi aksincha biri ikinchisini to‘ldirib yuksaltirib boradi.Ma’naviyati yuksak inson, (kadr) o‘zining mulkiga aslo xiyonat qilmaydi, doimo jamiyat va xalq manfaatlarini o ‘ylagan holda ish ko‘radi va jamiyat barqarorlashtirishda o‘zining eng muhim hissasini qo‘sha oladi.Agarda biz uning

aksi sifatida ko‘radigan bo‘lsak ma’naviyatsiz inson, kadr hech kimni o‘ylamaydi faqatgina o‘zining foydasi bo‘yicha ish ko‘radi.Bunday insonlar(kadrlar) hech qachon bu bozor munosabatiga o‘tishda eng ko‘p oyoqdan chaluvchilardir.

Iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘p jihatdan kadrlarning ma’naviyatiga bog ‘liq bo ‘lib.Hozirgi kunda kadrlar yuksak bilimga va tajribaga ega bo‘lishi bilan birga, quydagi yuksak ma’naviyatlarga ega bo ‘lishlari zarur hisoblanadi.

- Vatan oldidagi o‘z burchini to‘g‘ri anglashi;
- savdo-sotiq va o‘z korxonasining faoliyatini aniq tasavvur qilishi,
- o‘z sohasining ilmiy va amaliy jihatlarini mukammal bilishi, ma’rifatli bo‘lishi;
- dunyoviy bilimlarga va o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lishi:
- o‘z sohasiga oid qonun va qarorlarni mukammal bilishi;
- boylikka, shaxsiyatparastlikka, manmanlikka berilmasligi, kamtar, olijanob, sofdil, odob-axloqli bo‘lishi,
- barcha sohalarda halol va haromni ajrata bilishi, mehnatsevar, insonparvar bo‘lishi;
- chet el tillaridan ba’zilarini bilishi,
- insofli va adolatli, mard, qat’iyatli, boshlagan ishining natijasini oldindan ko‘ra biluvchi bo‘lishi

Biz birgina kadrlarning yuksak ma’naviyati qirralari to‘g‘risida to‘xtalganimiz bilan, lekin, jamiyat muammolari bilan shug‘ullanadigan barcha insonlar ham shu xislatlarga ega bo‘lishi zarur deymiz. Ming afsuslar bo‘lsinki, insonlar orasida jamiyat jihatlarini to‘g‘ri tushuraaydiganlar ham oz emas. Ular jamiyat oldidagi burchlarini ham unutadilar. Aslida inson burchlari ham bugun o‘ylab chiqarilgan emas, ular ota-bobolarimizning necha-necha avlodlari tajribasining natijasidir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida-degan edi I.A.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n ikkinchi chaqiriq o‘ninchi sessiyasida so‘zlagan nutqida inson ma’naviyatini unutish gunoh bo‘ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvib, oqibatda odamlarimiz ruhan qashshoq bo‘lib qolsalar, bunday jamiyatning hech kimga keragi yo‘q. Shu sababli ham Respublika mustaqillikka erishgandan buyon o‘tmish madaniyati va ma’naviyati, qadriyatlarni tiklash, milliy ongni o‘stirish kabi vazifalarni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Qaysi jamiyatda ma’naviy jihatlar qadrlanar ekan, o‘sha jamiyatda yashaydigan insonlar ijtimoiy tarafdan ko‘proq kafolatga ega bo‘ladilar. Shu sababli yuksak ma’naviyatga erishish borasida tinmay harakat qilinmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasi ma’naviy, ma’rifiy qadriyatlarga ham bog‘liq. Sobiq ittifoq davrida xalqimiz gohida yashirin, gohida ochiq kamsitilib kelindi. “Sizlar o‘z-o‘zlaringni mustaqil boshqarishga, mustaqil davlat qurishga qodir emassiz”, “Sizlar mute, qaram millatsiz”, “Sizlar uchun biz fikrlaymiz, nazarıya yaratamiz, amru farmon beramiz Azlar esa bajarasiz, xolos” deb kelganlar. Prezidentimiz I.A.Karimov siyosiy byuro a’zolarining bu fikrlarini bekorga misol qilib aytmagan. “Biz yuqoridamiz” deb turib olganlarning fikrlari naqadar hayosizlik ekanligini tarix ko‘rsatayotir. Mafkura yakka hokimligidan qutulgan xalq o‘z ma’naviyati va mafkurasini tiklab sivilizatsiyaning yuqori cho‘qqilariga qarab borayotir. Binobarin, taraqqiyot taqdirini ma’naviy yetuk, kadrlar hal qiladi.

Dunyoviy bilimlarni egallash ma’naviy barkamollikni ta’minlashga ham o‘z hissasini qo‘shadi. Barkamollik esa insonning ruhiy va ma’naviy salohiyatini, ma’rifiy hislatining oliy nishonasidir. Biz iqtisodiy o‘nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma’naviy o‘nglash, ma’naviy poklanish, ma’naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg‘un bo‘lishini istaymiz va uni to‘la tatbiq etamiz. Odamlarimiz omilkor, salohiyatli, oqibatli, halol va ijtimoiy maydonlarda sobit turadigan bo‘lsinlar. Hozirgi kunda ham ushbu fikrlarga amal qilingan holda ish olib borilmoqdaki, bu davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Davlat tomonidan ma’naviy va ma’rifiy ishlarga yordam qo‘lini cho‘zayotgan kishilarga, tadbirkorlarga, barcha homiylarga yordam ko‘rsatilib, ba’zi imtiyozlar berilayotganining guvohimiz. Ma’lumki, ma’naviy-ma’rifiy sohalar rivojlanishi uchun avvalo davlat homiylik qilmoqda. Chunki, ma’naviyat va ma’rifat o‘ta e’tiborni talab qiladigan sohalardan. Bu masalani hal etishda ham donishmandlarimiz o‘gitlariga, ya’ni “Ma’rifat bu shijoatdir” degan falsafiy fikrga amal qilinib ish olib borilayotir.

Ma’rifatga ishonganlar ma’rifatli kishilarni e’zozlaydi va ular ijod uchun shart-sharoit yaratadi. Ma’rifatga e’tiborli jamiyat o‘z yosh avlodlarini unutmaydi. Yosh avlod esa kelajak poydevoridir. Maqsadga erishish, yangi jamiyat qurish shu avlodga bog‘liq. Iqtisod va ma’naviyat, ma’rifat, siyosat nima ekanligini ularga tushuntirish shu jamiyat keksa va o‘rta yoshli ziyolilarining ulkan vazifasidir. Chunki barcha sohalardagi islohotlar taqdiri yoshlarning qo‘lidadir. Shu ma’noda iqtisodiy islohotlarda davlat bosh islohotchi ekanligini e’tirof etar ekanmiz, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ham shunday bo‘lsa, bu yutuqlar garovi bo‘ladi. Ya’ni davlat ma’naviy yo‘nalishlarni belgilab berishi ayni muddao. Bozor munosabatlari davrida jamiyat uchun tarbiya samaradorligiga ayniqsa diqqat-e’tibor qaratilishi o‘ta muhim. Ma’naviyat tarbiyaning ajralmas qismi ekan, undan oqilona foydalanish, yoshlarni vatanparvarlik, rostgo‘ylik, haqsevarlikka o‘rgatish davr talabi. Axloq ma’naviyatning o‘zagi. Inson axloqi noyobdir. Axloq avvalo, insof, diyonat, adolat tuyg‘usi, mehr-shafiqat, iymon, halollikdir. Demak, jamiyat a’zolarini axloqli qilib tarbiyalash, o‘z iqtisodiyotini o‘nglashda muhim omildir. Bu sohada muqaddas dinimiz islomning ham beqiyos o‘rni bor. Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchunham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar yig‘indisi emas. Ana shu ma’rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o‘gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, or-nomusli, oriyatli bo‘lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar. Bundan tashqari, Hoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Hoja Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi allomalarimiz qoldirgan tariqatlar ham ma’naviyatimiz asosini tashkil etadi. Ular insonlarni ma’rifatli, yuksak ma’naviyatlilikka chaqirgan. Umuman olganda, dinimiz xalq ma’naviyatini yuksalishi uchun zamin yaratuvchi beqiyos manba. Undan foydalanish bizning vazifamizdir.

Axloq talablari kishilarning fe’l-atvori va faoliyatida o‘z ifodasini topadi. Bunda ba’zi xattiharakat va xulq-atvorlar axloqiy, ba’zilari axloqsizlik deb baholanadi. Axloq – ijtimoiy ongning eng qadimiy shakllaridan biri. Davr o‘zgara borgani sari har qanday hodisa kabi axloq ham o‘zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiy fan – “Etika” va “Axloqshunoslik” o‘rganadi. Uning axloq bilan aloqador “burch”, “vijdon”, “or-nomus” kabi qator kategoriyalari mavjud. Axloq hodisa sifatida ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o‘z talablarining asoslanishi va amalga oshirilishi bilan farq qiladi. Axloq me’yorlari hamma uchun barobardir, lekin ular hech kimning buyrug‘i bilan joriy etilmagan burch, majburiyat tarzida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida axloqning o‘ziga xos me’yor va qoidalari (mehnat axloqi, xizmat ko‘rsatish axloqi, kasbiy, tadbirkorlik, diplomatiya etikasi, maishiy turmush, oila axloqi) mavjud va ular axloqning nisbatan mustaqil sohalarini tashkil etadi. Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, har bir kishining jamiyat va oiladagi yurish-turishi, tartib-qoidalarining yig‘indisi sifatida gavdalanadi. Demak, jamiyatga, oilaga, mehnatga bo‘lgan munosabatda axloq belgilari namoyon bo‘ladi. Inson xatti-harakati va xulqidagi yo‘nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib, shaxs faoliyatida, uning kamol topishida axloqning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Xalqimiz axloqiy tafakkur bobida boy merosga ega.

Axloqqa oid fikrlar “Avesto”da, qadimgi turkiy tosh bitiklar va boshqa yozma manbalarda o‘z ifodasini topgan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida keng tarqalgan pandnoma va odobnomalarda, xalq pedagogikasida, diniy-falsafiy risolalar hamda allomalar merosida axloq masalalariga keng o‘rin berilgan. Jumladan, buyuk muhaddis imom Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik – mana shu to‘rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo‘lsin, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham, zarari yo‘qdir”, deb yozadi. Alloma Voiz Koshifiy esa “Insonning qadr-qimmati uning molmulki yoki ijtimoiy kelib chiqishi bilan emas, balki ma’naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o‘lchanadi”, deb ta’kidlaydi. Ulug‘ ma’rifatparvar Abdulla Avloniy axloqni bunday ta’riflaydi: “Insonlarni yaxshilika chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur. Axloq ilmini o‘qib, bilub amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi haq na uchun xalq qilganin, Yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o‘zidan xabardor bo‘lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini bilmas, o‘z aybini bilub, iqror qilub, tuzatmakg‘a sa’y va

qo‘shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidur”. Abu Nasr Forobiy “Axloq” tushunchasini keng ma’noda talqin qilib, dini, e’tiqodi, irqi, tilidan qat’i nazar, barcha insonlarni hamjihatlik va hamkorlikka chaqiradi.

Dunyoda yagona va bir butun inson jamoasini shakllantirishni, uning va barcha fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko‘rsatishini orzu qiladi. Bu g‘oya keyinchalik jahondagi ko‘plab mutafakkirlar, jumladan, nemis faylasufi I.Kant tomonidan ham ilgari surilgan. Bu g‘oyalar bugungi kunda ham naqadar muhim ahamiyatga ega. Forobiyning fikricha, yuksak axloqiy fazilatlarga rioya qilgan holda rivojlanayotgan har qanday davlat o‘z fuqarolarini, shakshubhasiz, baxtu saodat yo‘liga olib chiquvchi kuchdir. Inson bilimli va namunali axloq egasi bo‘lgandagina ijobiy xislatlari bilan barchaga o‘rnak bo‘la oladi.

Yuqorida sanab o ‘tilgan qoida va tamoyllarga rioya qilgan holda biz kadirlar tayyorlaydigan bo ‘lsak ham ma’naviy ham axloqiy va aqliy yetuk kadrlar butun dunyo hamjamiyatida chuqur e’tirovga sazovor bo ‘lishdadi hamda malakat yoshlarining salohiyati rivojlanishida ushbu uch formula “Ma’naviyat, axloq, bilm” eng muhim asqotuvchi tamoyildir. O‘zbekiston hamjamiyati rivojlanishi uchun biz yurtimizda chiqarilayotgan barcha kadrlarni ma’naviayti yetuk va axloqiy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalashimiz darkor.Zero ota-bobolarimizni xuxsan Jadid ma’rifatparvarlarimizning azali g‘oyasini ham ilm ziyolilari sanalgan birinchi renessans egalarining ham ishlarini davom ettiruvchi bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-tom, T.: O‘zbekiston, 1996 yil, 34-bet

2.I.A.Karimov. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari T.: «O‘zbekiston», 1995 yil, 47-bet.

3.I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir 3-tom, T.: «O‘zbekiston», 1996 yil, 40-bet

4.https://oyina.uz/uz/teahause/1314

5.https://oyina.uz/uz/teahause/1910